

**Jamg'arma omonatning asosiy shartlari to'g'risidagi
AXBOROT VARAQASI***

Tijorat bankining nomi rasmiy veb-sayti telefon raqamlari	«Asia Alliance Bank» ATB https://aab.uz/uz/ (+998 71) 231-60-00
---	--

1-bo'lim. Omonatning asosiy shartlari

1. Omonat nomi	“Maqsadli ipoteka omonati”
2. Omonatning valyutasi	so'm
3. Omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi (agar omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi differentsiallashtirilgan yoki omonatni rasmiylashtirish usuliga bog'liq bo'lsa? Har biri alohida ko'rsatiladi)	12%
4. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni omonat asosiy mablag'iga qo'shib, qayta foiz hisoblash)	mavjud emas
5. Omonatning muddati	12 (o'n ikki) oy
6. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng kam miqdori (agar mavjud bo'lsa)	500 000 (besh yuz ming) so'm
7. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng katta miqdori (agar mavjud bo'lsa)	belgilanmagan
8. Omonat bo'yicha foizlarni to'lash davriyligi	omonat muddati tugaganda
9. Omonatni rasmiylashtirish usuli (onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali)	bankka tashrif buyurish orqali
10. Qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati	mavjud
11. Avtouzaytirish (omonat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	mavjud emas
12. Boshqa shartlar	Omonat ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalni yoki uy-joy qiymatining bir qismini to'lash uchun pul mablag'larini jamg'arish maqsadida ochiladi.

2-bo'lim. Boshqa muxim shartlar

1. Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	mavjud emas
2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	Omonat muddatdan avval talab qilib olinganda omonat bo'yicha belgilangan foiz stavkasi saqlanib qoladi. Pul mablag'lari omonatda haqiqatda saqlangan to'liq kunlari uchun foizlar yillik 12% hisobidan to'lanadi.

OMONAT QO'YISHGA ROZI BO'LISHDAN OLDIN DIQQAT BILAN O'RGANIB CHIQING!

Siz omonatning shartlari, daromadlar va omonat bo'yicha hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlaringiz, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni [\(+998 71\) 231-60-00](tel:+998712316000) raqamli telefonga yoki bankning info@aab.uz elektron manziliga jonatishingiz mumkin.

**AXBOROT VARAQASINING
TO'G'RILIGI VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.**

* Mazkur varaqa omonat shartnomasi yoki omonat uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha, turli banklarning omonat shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.